

## **YERDAGI HAYOT TARZIGA TA’SIR ETUVCHI SALBIY OMILLAR VA UNDA INSONIYATNI O’RNI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR**

*Sultonov Shuxrat Adxamovich - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi,  
[sultonovshuxrat87@gmail.com](mailto:sultonovshuxrat87@gmail.com)*

*Norbekov Ilyos Sherzodjon o‘g‘li - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi” ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi,  
[ilyosnorbeko11@gmail.com](mailto:ilyosnorbeko11@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqola Yerdagi hayot tarziga ta’sir etuvchi salbiy omillar va unda insoniyatni o’rni haqida ba’zi mulohazalarga bag‘ishlangan. Inson yashaydigan hozirgi hududdagi zararli gazlar miqdori ortishi va natijada salbiy oqibatlar kelib chiqayotganligi. Yerdagi iqlimning global geosistemasi, tektonik plitalar hamda geodinamika tafavvutlar, hayot uchun muhim bo‘lgan tabiiy jarayonlar davomiyligi kabi matereallar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** qatlam, iqlim geosistema, tektonik plita, geodinamika, atmosfera, global, sanoat, neft, gaz, yoqilg‘i, inson.

### **NEGATIVE FACTORS AFFECTING LIFESTYLE ON EARTH AND SOME CONSIDERATIONS ABOUT HUMANITY'S PLACE IN IT**

---

Sultonov Shukhrat Adkhamovich - independent researcher of the department  
[“Department of geology and exploration of minerals ” Karshi Engineering Economics Institute,](#) [sultonovshuxrat87@gmail.com](mailto:sultonovshuxrat87@gmail.com)

Norbekov Ilyos Sherzodjon ogli - 3rd grade student of Karshi Engineering Economics Institute "Geology, exploration and exploration of mineral deposits",  
[ilyosnorbeko11@gmail.com](mailto:ilyosnorbeko11@gmail.com)

**Abstract.** The article is devoted to some considerations about the negative factors affecting the way of life on Earth and the place of humanity in it. The increase in the amount of harmful gases in the current area where people live and the resulting negative consequences. Materials such as the global geosystem of the Earth's climate, tectonic plates and geodynamic differences, and the duration of natural processes important for life have been analyzed.

**Key words:** layer, climate, geosystem, tectonic plate, geodynamics, atmosphere, global, industry, oil, gas, fuel, human.

## **KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)**

Inson yashaydigan hozirgi hudud Yer va osmon o‘rtasidagi yupqa qatlamki, bu yerda iqlimning global geosistemasi, tektonik plitalar hamda geodinamika hayot uchun muhim bo‘lgan atrof muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi.

Biz yashash tarzimizni tabiiy atrof-muhitdan oqilona foydalanish yo‘llarini topish orqali oshirdik, jumladan: oziq-ovqat yetishtirish, minerallarni qidirib topish va ishlatish; yer geosistemasidagi mineral va elementlardan tarkib topgan foydali qazilmalarni o‘zlashtirish, foydali qazilmalarni o‘zlashtirish uchun Yerdagi strukturalarni o‘rganish va shu orqali yerdagi umumiy insoniyat yashash tarsi uchun muhim omillarni o‘rganish va o‘zlashtirishda davom etmoqda.

Yerni yaxshi tushinish inson hayotini yengillashtirishi haqidagi tasavvur hozirgi tarraqiy etgan davrda faqatgina ijobjiy ta’sir etib qolmaydi. Insoniyat soni 8 milliardga yetdi va bizni energiya va boshqa manbalarda bo‘lgan ehtiyojlarimiz ortib bormoqda.

Dunyoning ba’zi joylarida atrof-muhit ahvoli yaxshilanmayapti, global atrof-muhitga yetayotgan zarar dahshatli tus olmoqda. Manbalardan foydalanish atrof muhitga yetayotgan zararga qarama-qarshi ravishda Yer haqidagi fan va jamiyatga yangi o‘zgarishlar kiritmoqda.

## **ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА/METHODS)**

Biz iqtisodiyotimizni yurguzuvchi energiya manbalarini o‘rganamiz va atrof-muhitdagi ta’sir ko‘rsatuvchi rivojlanishimiz faoliyati qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganamiz. Biz 2 katta muammoga to‘xtalib o‘tamiz: bular, neftni kamayishi va energiya istemolidan kelib chiqadigan iqlimdagagi o‘zgarishlardir.

Iqtisodiyotimiz qayta tiklanmaydigan manbalarini yoqish, undan kelib chiqadigan xavli issiqxona effekti (karbonat angidirit) katta miqdordagi bir necha o‘n yillarda ham o‘nglanmaydigan hodisadir. Bu muammo bir necha savollarga sabab bo‘ladi. Xususan, atmosferadagi CO<sub>2</sub> global ekologiyaga qanday ta’sir qiladi va global barqarorlikni qisqartiradimi? Qancha tez vaqtda biz yoqilg‘i manbalarini bilan almashtira olamiz? Biz manbalardan qanday qilib foydalansak, rivojlanish normal holatda bo‘ladi. Kelajak avlodga yashash uchun hozirgi tabiatni yetkazib bera olamizmi?

Bu savollar katta ahamiyatga ega, shuning uchun ular aniq ilmiy javob talab qiladi. Ammo, biz Yer kelajakda qanday o‘zgarishlarga uchrashi haqidagi savollarga javob topishimiz zarur.

Rivojlanish global ekosistema sifatida, inson faoliyati jadal tezlikda ko‘paymoqda. 1930 yildan 2000 yilgacha Yer aholisi 300% ko‘paydi, ya’ni 2 milliarddan 6 milliardgacha.

Hozirda aholi soni yiliga 100 milliondan ko‘paymoqda va keyingi 30 yilda 8 milliarddan ko‘paymoqda. Oxirgi 70 yilda energiyadan foydalanish 1000% ga oshdi, hozirda esa aholi soni ko‘payishi soniga 2 barobar ko‘p miqdorda oshmoqda (1-rasm).

Insoniyat atrof-muhitni o‘rmonlarni kesish, qishloqlarning ko‘payishi va shu kabi tuproqdan foydalanish orqali o‘zgartirib yubordi. Dastlabki asrlarda bu kabi o‘zgarishlar mahalliy yoki hududiy miqyosda bo‘lgan bo‘lsa, hozirda og‘ir sanoat atrof-muhitni o‘zgarishigina sabab bo‘lmoqda.

Masalan, inson qurgan rezervuarlar dunyo daryolarda 30% zararli cho‘kindilar to‘planishiga sabab bo‘lmoqda.

- 50 yil oldin ixtiro qilingan reon muzlatgichi xolodilnik va konditsionerlarda stratosferadan chiqib, ozon qatlamini yemiradi.

- insoniyat Yer yuzidagi 1/3 qism o‘rmon yerlarini boshqa Yer hududida aylantirish oxirgi yarim asr maboynda amalga oshganligi.



1-rasm. Yerning tungi yorug’ ko‘rinishi, energiya ishlatalishining nomoyonlanishi.

- 19 asr boshlarida boshlangan sanoat rivojlanishi o‘rmon yerlarini kamayishi va yoqilg‘i manbalarining ishlatalishi atmosferadagi CO<sub>2</sub> ning miqdorini 40% ga yetkazdi. Atmosferadagi CO<sub>2</sub> miqdori har 10 yillikda 4 % ga oshmoqda va global iqlimga sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda.

Sanoatda ishlatalayotgan energiya insonlarga tektonik plita va iqlimning o‘zgarishiga sabab bo‘lishini bildiradi. Bu nafaqat Yer sistemasining bir bo‘lagini balki Yer sistemasini ishlashini o‘zgartira olmaymiz. Geologik nuqtai nazaridan ham hozirgi global muammoga aylangan!

Energiya manbalari. Geosistemalar ochiq sistema hisoblanib, energiya ayirboshlaydi. Quyosh radiatsiyasi iqlimga ta'sir qilib, Yerdagi tektonik plita va geodinamik sistemalar yer strukturalari o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Biomassa o'simlik va hayvonlarning ozuqadan oladigan fotosintezidir. Muqobil energiya manbai esa Quyosh nuri ta'sirida yashil o'simliklarning CO<sub>2</sub> va suv atrof muhitga qaytadi. Bunda biomassa Quyosh energiyasi jamlovchi qisqa muddatli rezervuarga aylanadi. Bu qayta taqsimlanadigan energiya manbasidir. Chunki biosfera doimo yangi biomassalari yaratadi: masalan chopilgan o'rmon barpo qilinishi mumkin.

Insoniyat turli qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalangan. Tegirmonda oqar suv va xovuz, yet va fillar yordamida yurgizilgan. Toshko'mir davrida, cho'kindi jinslar juda ham rivojlangan va natijada yirik biomassa turi yig'ilgan, natijada yirik ko'mirhavzalari vujudga kelgan.

Boshqa yoqilg'i turlari, neft va tabiiy gaz organik jinslarning qayta o'zgarishi (qatlam sharoitida o'zrishi) natijasida kelib chiqqan. Bunday yoqilg'i turlari geologik jarayonlar mahsulidir.

Global energiya istemoli. Energiya isemoli yonilg'i o'lchov birikmalari bilan o'lchanadi: masalan, neft barrel, gaz kub metr, va ko'mir tonna. Ammo yagona bir o'lchovlar qo'llansa oson bo'ladi.

### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION)**

Shunday qilib, dunyo aholisining 71%i dunyodagi energiya istemolining 95% qismini sarf qiladi. Boshqa hollarda hayot kechirish uchun harakat qilganda ular energiya istemoli yiliga 4.3% ga ko'paymoqda.

O'sish nisbatlari eng yuqori ko'rsatgichi Xitoy (15%), Hindiston (7%) va boshqa Osiyo mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Energiya iqtisoditi dunyoda CO<sub>2</sub> aylanishiga bog'liq, chunki yonilg'i manbasi, biomassa rezervuaridir. Yonilg'i energiyasi iqtisodiyoti ravojlangan sari CO<sub>2</sub> ning litosferadan atmosferaga chiqishi ko'paydi. Bunday ajralib chiqish atmosferadagi CO<sub>2</sub> ning miqdorini 28% dan 38% ga oshirdi.

Dunyo hamjamiyati bir yilda atmosferaga 5,4 gigatonna uglerod chiqarmoqda (gegatonna bu mlrd tonna) bundan tashqari o'rmonlarning yonishi va yerdan foydalanishi natijasida yana qo'shimcha 1,7 gigatonna chiqariladi. Agarda shu hamma chiqarilgan CO<sub>2</sub> atmosferada qolsa, unda uning miqdori yiliga 0,9% ya'ni 2 marotabagacha ortadi. Lekin yiliga 3,8 gigatonna tabiiy jarayonlar natijasida atmosferadan yo'qotiladi.

Dunyoda yonilg'i yoqilishidan atmosferaga 6 gigatonna CO<sub>2</sub> chiqadi. Ba'zi qismi okeanga tushadi, ma'lum bir qismi esa o'simliklar tomonidan yutiladi.

Ammo 3.35 gigatonna CO<sub>2</sub> atmosferada qoladi, bu esa uning miqdorini yiliga 0.4 barovar oshayotganini bildiradi. 20 asrdagi global issiqlashish shu CO<sub>2</sub> ning oshishi bilan bog'liq. Bunday harakatlar kelajakda okeanlarda termoximik matereallar

to‘planishiga sabab bo‘ladi. Biz Yer sistemasini hali unchalik yaxshi bilmaymiz va bunday muammolar qanday tasir ko‘rsatishining bila olmaymiz. Shunga qaramasdan iqlimning kelajagi biosfera energiya manbalaridan foydalanish va chiqindilarni qayta ishslashga bog‘liq. Bu muammoni bartaraf qilish uchun har bir inson ya’ni istemolchilar birgalikda harakat qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Energiyadan samaraliroq foydalanish, tabiiy gazdan ko‘proq foydalanish va xavfsizroq atom energiyasini va toza ko‘mir texnologiyasini kiritish kabi o‘zgarishlarni kiritish orqali Yerdagi hayot tarzi davomiyligi yaxshilanishi, tabiiy jarayonlar buzilishi sekinlashuvini amalga oshirishga yordam berishi mumkin.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /REFERENCES)**

- 1.** J.Gratzinger, T.X.Jorda, F.Prens, R.Siever., Yerni o‘rganish, beshinchi nashr, New york – 2021 yil
- 2.** Navotova D.I. Main principles for determining the efficiency of the use of land resources// Proceedings of International Educators Conference 2023. Italiya. Vol.2 No. 2 (2023) 25th February, 2023 P. 443-447
- 3.** Navotova D.I. Possibilities of applying world experience in efficientuse of irrigatedlandsof the republic of Uzbekistan// International conference onscientificresearch in natural and social sciences. Canadaconference. Volume 2. Issue 2. February 5th 2023. P. 182-186
- 4.** Navotova D.I. Internal Differences In The Use Of Land Resources In The Agriculture Of Kashkadarya Region//Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16. Belgiya. 2023.P.100-104
- 5.** Navotova D.I.Theoretical and methodological aspects of resources of land resources in agriculture//Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. November, 2022. – P. 40-44
- 6.** Султонов.Ш.А., Петрохимические и геохимические особенности дайковых серий северной части Чакылкалянского мегаблока (Южный Узбекистан) «SCIENCE AND EDUCATION IN THE MODERN WORLD: CHALLENGES OF THE XXI CENTURY» материалы VII Международной науч-прак. конф. (ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ) 3-12 бетлар. ТЕСНИка, 2020.
- 7.** Ярбобоев Т.Н., Очилов И.С., Султонов Ш.А.. Чакилян мегаблокининг маъдан-магматик тизимлари ва уларнинг апокарбонат олтин маъданларига истиқболлари // Инновацион технологииялар Ўзбекистон.- Қарши 2021. - № 2. - 15-20 б.
- 8.** Ярбобоев Т.Н., Султонов Ш.А., Очилов И.С.. Основные дайковые серии северной части Чакылкалянского мегаблока и их потенциальная рудоносность

(на примере Яхтонского дайкового роя, Южный Узбекистан) // Бюллетень науки и практики.- Нижневартовск, Россия, 2020 г. №11. С. 104-116.

9. Ярбобоев Т.Н., Султонов Ш.А., Очилов И.С.. Роль окружающей среды в размещении апокарбонатного Золотого оруденения Чакылкалянского мегаблока (Южный Узбекистан) // Бюллетень науки и практики. - e2021. - №6. - С. 38-51.

10. Sultonov Sh.A. Plitaichi rivojlanish bosqichlarida Chakilkalyan tog‘larining tektonik faollashuvi // “O‘zbekistonda tabiiy resurslardan foydalanish va qayta ishslash jarayonida atrof muhitni ifloslanish muammolari va yechimlari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami 2022 yil 25-26 mart 316-317 betlar.

11. Sultonov Sh.A. Chakilkalyan-Qoratepa tog‘-konchilik rayoni yaxton tuzilmasining tektonik rivojlanishi va geologik hosilalari. <http://www.newjournal.org/> ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 31(3), 174–184.

12. Sultonov Sh.A. Vulqonlarni Yer yuzida tarqalishi yoki yer bag‘ridagi “Ajdar” lar. <http://www.newjournal.org/> ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 34 (2), 98-101.

13. Yarboboyev T.N., Ochilov I.S., Sultonov Sh.A., Metasomatic rocks of the Chakylkalyan mountains and their relationship to mineralization. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS <http://www.newjournal.org/> Volume-38\_Issue-1\_October\_2023. 86-92 betlar

14. Yarboboev T., Sultanov Sh., Aminov F., Navotova D., NON-TRADITIONAL OILS: ANALYSIS OF REGIONAL DISTRIBUTION AND RESERVES OF HEAVY OIL AND NATURAL BITUMEN., Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice <https://www.bulletennauki.com> Т. 6. №7. 2020 <https://doi.org/10.33619/2414-2948/56> 226-234-betlar.